

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қозоқов Собиржон Зокиржонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Sodiqova Shohida</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KEKSALAR UCHUN IMKONIYATLARI VA XAVFLARI.....	9
<b>2. Karimov Bobir</b> FASILITATIV LIDERLIK – BOSHQARUVDA DEMOKRATIK JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	18
<b>3. Алексеева Виктория</b> ОСОБЕННОСТИ ВОСПРИЯТИЯ МОЛОДЕЖЬЮ СОЦИАЛЬНЫХ ЛИФТОВ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	26
<b>4. Якубов Ильдар</b> СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	38
<b>5. Ахмедов Нодир</b> ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ.....	45
<b>6. Abduraxmonova Manzuraxon, Sultonova Nazokatxon</b> KVADROBERLAR SUBMADANIYATI – DEVIANT XULQ-ATVOR SIFATIDA.....	53
<b>7. Alikariyeva A’loxon</b> TA’LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI.....	59
<b>8. Berdimuratova Alima, Kamalova Khatira, Baymurzaev Azamat</b> GLOBALLASIW DÁWIRINDE QARAQALPAQSTANLÍ JASLARDIŃ QÁDIRIYATLARĜA BAĖDARLANGANLÍĜI MÁSELELERI.....	67
<b>9. Mirzaxmedov Xurshid</b> SOTSIAL TRANSFORMATSIYA: YOSHLAR.....	81
<b>10. Zaretdinova Nesibeli, Hakimniyazova Mavluda</b> MEHNAT MIGRATSIYASINING DEMOGRAFIYAGA TA’SIRI.....	89
<b>11. Mo‘minov Zokirjon</b> IJTIMOIY MOBILLIK TURLARI: VERTIKAL VA GORIZONTAL IJTIMOiy MOBILLIK HAQIDA TUSHUNCHA.....	96
<b>12. Узакова Зарина</b> ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	103
<b>13. Alimuxamedova Nodira</b> «MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	110
<b>14. Radjabova Aziza</b> GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA’SIRI.....	117

<b>15. Dulanbayeva Oygul</b> ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA DIN VA IQTISODIY INSTITUTLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI.....	123
<b>16. Bekmurodov Xusan</b> “MAHALLA YETTILIGI” – JAMIYATDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MEXANIZMI SIFATIDA (SOTSIOLOGIK TAHLIL).....	129
<b>17. Samadov Shohzod</b> FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYASIGA DOIR QARASHLAR (SOTSIOLOGIK TAHLIL ASOSIDA).....	135
<b>18. Мирзаева Шахноза</b> НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	142
<b>19. Mirjavxarova Farida</b> TRANSFORMATSION JAMIYATDA HARBIYLIK KASBI: ORIENTATSIYA VA DEFORMATSIYA (KASBIY BUZILISH) SABABLARI, OMILLARI VA UNING NAMOYON BO'LISHI.....	148
<b>20. Xaytboev Boburjon</b> INSON, FAN VA TEXNIKA TUSHUNCHALARI – FALSAFIY TADQIQOD OBYEKTI SIFATIDA.....	155
<b>21. Xo'jamqulov Adham</b> YANGI O'ZBEKISTONNING YOSHLARGA DOIR SIYOSATI: YOSHLAR IJTIMOIIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	162
<b>22. Qobilov Uchqun</b> DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMILLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	169
<b>23. A'zamova Kumush</b> INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY DAVLAT MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	176
<b>24. Tajieva Dilnoz</b> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA MAVQEI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	183
<b>25. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	189
<b>26. Каюмова Райхона</b> МАХАЛЛЯ В УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	198


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Radjabova Aziza,**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
Xalqaro munosabatlar kafedrasida katta o'qituvchisi,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

## GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O'ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA'SIRI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14564792>

### ANNOTATSIYA

Global geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar jahon siyosati va iqtisodiyotini shakllantirishda, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro munosabatlar tizimining tobora murakkablashuvi va iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi natijasida mintaqaviy nizolar va ziddiyatlarning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash va barqarorlikni saqlash dunyo hamjamiyati barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lidagi muhim vazifaga aylangan. Ushbu maqolada global geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlarning mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri, shuningdek, nizolarni oldini olishda qanday rol o'ynashiga doir jihatlar ilmiy tahlil qilinadi. Mintaqaviy hamkorlik global tahdidlarga qarshi kurashda eng samarali vosita ekanligi asoslab berilgan. Turli iqtisodiy va siyosiy integratsion ittifoqlar tarkibida o'zaro hamkorlikni amalga oshirish mamlakatlarning xalqaro munosabatlarda barqaror siyosat olib borishlarini ta'minlovchi eng maqbul vosita ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, global xavfsizlik, arbitraj va mediatsiya, global iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, xalqaro huquq, muzokaralar, xalqaro tashkilotlar.

**Раджабова Азиза,**

Университет мировой экономики и дипломатии,  
стар.преподаватель кафедры международных отношений,  
д.ф.н (PhD) по политологии,  
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

## ГЛОБАЛЬНЫЕ ГЕОСТАТИЧЕСКИЕ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЕГИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ КОНФЛИКТОВ

### АННОТАЦИЯ

Глобальные геополитические и геоэкономические изменения играют важную роль в формировании мировой политики и экономики, а также в обеспечении региональной безопасности. В результате усложнения системы международных отношений и изменений в экономических системах предотвращение региональных споров и конфликтов, обеспечение безопасности и поддержание стабильности стали важной задачей на пути обеспечения

устойчивого развития мирового сообщества. В данной статье дается научный анализ влияния глобальных геополитических и геоэкономических изменений на региональную безопасность, а также их роли в предотвращении конфликтов. Региональное сотрудничество считается наиболее эффективным способом решения глобальных угроз. Подчеркивается, что сотрудничество в рамках различных экономических и политических интеграционных союзов является наилучшим подходом для обеспечения стабильной политики между странами в международных отношениях.

**Ключевые слова:** интеграция, глобальная безопасность, арбитраж и медиация, глобальная экономика, международное сотрудничество, международное право, переговоры, международные организации.

**Radjabova Aziza,**

University of World Economy and Diplomacy,  
Senior Lecturer, Department of International Relations,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences,  
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

## GLOBAL GEOSTATIC AND GEO-ECONOMIC CHANGES AND THEIR IMPACT ON REGIONAL SECURITY AND CONFLICT PREVENTION

### ABSTRACT

Global geopolitical and geoeconomic changes significantly shape world politics and the economy, as well as regional security. Due to the increasing complexity of international relations and shifts in economic systems, preventing regional disputes and conflicts has become essential for ensuring security and maintaining stability. These factors are crucial for the sustainable development of the global community. This article offers a scientific analysis of how global geopolitical and geoeconomic changes impact regional security and contribute to conflict prevention. Regional cooperation is considered the most effective way to address global threats. It is emphasized that collaboration within various economic and political integration alliances is the best approach to ensure stable policies among countries in international relations.

**Key words:** integration, global security, arbitration and mediation, global economy, international cooperation, international law, negotiations, international organizations.

### KIRISH

Dunyoning jadal sur'atlarda o'zgarib borayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy qiyofasi, xalqaro munosabatlar subyektlari oldida muhim vazifalarni qo'ymoqda. Davlatlar o'z ichki va tashqi siyosatida puxta o'ylangan qarorlarni qabul qilishi, hududiy yaxlitlikni ta'minlash yo'lida yangi siyosiy ittifoqlarga birlashish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadida integratsion jarayonlarning muhim bir qismiga aylanib ulgurishi shular jumlasidandir. Mazkur jarayonlarda hech bir davlat yoxud mintaqqa yo'qki, ushbu tendensiyalarning ta'siri sezilmagan.

O'tgan asrning 1990-yillardan keyin global geosiyosiy muhitda yuzaga kelgan o'zgarishlar, jumladan Sovet Ittifoqining parchalanishi, Xitoyning iqtisodiy kuch markazi sifatida yuksalishi, AQShning global liderlik roliga da'vog'arligi, yangi geosiyosiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning shakllanishi, noan'anaviy tahdidlarning global qamrov kasb etib, ular sonining ortib borishi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir qila boshladi. AQSh, Xitoy, Rossiya kabi yirik kuch markazlarining geosiyosiy strategiyalari o'zgarishi natijasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda yangi murakkabliklar paydo bo'ldi. Yangi hududiy ziddiyatlar, xususan, Xitoyning Janubiy Xitoy dengizida kengayishi va Rossiyaning Ukraina bilan bog'liq strategiyasi yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilganligini kuzatildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Yevropa Ittifoqi, BRICS kabi tashkilotlar xalqaro hamjamiyat oldida turgan xavfsizlikni saqlash, nizolarni boshqarish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol

o'ynashi jahon siyosatida o'z aksini topib bormoqda. Global texnologik rivojlanish, ayniqsa kiberxavfsizlik sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda yangi tahdidlar mavjudligini isbotlamoqda.

### **METODOLOGIYA**

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi transformatsion jarayonlar qurshovida qolgan bir paytda global xavfsizlik, jahondagi turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, keng va murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan. Olimlar, tadqiqotchilar, elchi-diplomatlar, siyosatshunos olimlar bu jabhada turli yondashuvlarni ilgari surishadi. Xususan, Realistik yondashuv vakillari Hans Morgenthau [1] va Kenneth Waltz [2], global tizimni anarxik deb hisoblaydilar, ya'ni davlatlar o'rtasida yuqori darajadagi tartibsizlik va hech bir global hukumatning mavjud emasligini ta'kidlaydilar. Global xavfsizlik, asosan davlatlarning o'z manfaatlarini himoya qilish va qudratini saqlashga qaratilgan harakatlaridan iborat deb qaraladi. Shuning uchun, xavfsizlik faqat har bir davlatning o'ziga xos kuchi va qudrati bilan ta'minlanadi. Ular, shuningdek, davlatlarning geosiyosiy manfaatlari o'rtasidagi raqobat va ziddiyatlarni global xavfsizlikka tahdid sifatida ko'radilar. Mazkur yondashuvning yana bir vakili, Henry Kissinger [3] bo'lib, u o'zining "Realpolitik", deb nomlanuvchi pragmatik yondashuvi orqali davlatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun amaliy va realist siyosat yuritishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kuchli davlatlar o'rtasidagi muvozanat va diplomatik muzokaralar orqali tinchlik va barqarorlikni ta'minlash mumkin. John Mearsheimer "offensive realism" (hujumkor realizm) nazariyasini ishlab chiqqan olim sifatida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni asosan mintaqaviy gegemonizmga erishish istagi bilan boshqarilishini ta'kidlaydi [4]. Mearsheimerning fikricha, davlatlar o'z xavfsizligini ta'minlash uchun kuchli bo'lishga intiladi va bu jarayonda boshqa davlatlar bilan raqobatlashadi. U shuningdek, xalqaro tizimning anarxik tabiati tufayli davlatlar o'rtasida doimiy ravishda kuch va ta'sir uchun kurash olib borilishini ta'kidlaydi. U o'zining "The Tragedy of Great Power Politics" [5] (Buyuk kuchlar siyosatining fojiasi) kitobida u davlatlar o'rtasidagi raqobat va agressiyaning sabablarini tahlil qiladi va xalqaro tizimda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash qiyinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatlar o'rtasidagi kuch muvozanati va raqobat xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyatlaridan biridir va bu jarayon davomida davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun har qanday vositani qo'llashga tayyor bo'lishlari kerak.

Liberalizm yondashuvi vakillari esa global xavfsizlikni ta'minlashda hamkorlik va xalqaro institutlarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Robert Keohane [6] va Joseph Nye [7] kabi olimlar, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy bog'liqliklarning kuchayishi, hamkorlik va diplomatiya orqali xavfsizlikni oshirishi mumkin, deb hisoblaydilar. Ular, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT, Jahon savdo tashkiloti) va huquqiy tizimlarning global xavfsizlikni saqlashda samarali bo'lishi mumkinligiga ishonadilar.

Shuningdek, Johan Galtung [8], singari olimlar tinchlik tadqiqotlari sohasidagi tadqiqotlarida global xavfsizlikni faqat harbiy kuch va davlatlarning qudratini ta'minlash bilan cheklamaslik kerakligini ta'kidlaydilar. tinchlik va xavfsizlikni "to'liq xavfsizlik" (positive peace) tamoyilida ko'radi, ya'ni ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va inson huquqlari ham xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida baholaydilar. Galtungning fikriga ko'ra, faqat harbiy tashvishlar emas, balki global darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar ham xavfsizlikka tahdid soladi. Haqiqatdan ham, zamonaviy xalqaro munosabatlarda iqlim o'zgarishi, noan'anaviy tahdidlar, iqtisodiy inqirozlar natijasida turli ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka xavf va tahdidlarni kuzatish mumkin. Bu kabi holatlar resurslarga bo'lgan talab ortishi, migratsion oqimlarning kuchayishi va davlatlar o'rtasida mojarolarning boshlanishiga olib keladi.

### **ASOSIY QISM**

Xalqaro aloqalar, barqaror siyosat, zamonaviy texnologiyalar va madaniyatlararo hamkorlikning o'zaro uyg'unlashuvi global xavflarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy geoiqtisodiy va geosiyosiy o'zgarishlar global xavf va tahdidlarga qarshi kurashish faqat bir mamlakat yoki tashkilotning salohiyati yetarlicha emasligini ko'rsatmoqda. Global tahdidlarga qarshi mintaqaviy hamkorlik, hozirgi kunda xalqaro munosabatlarning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda davlatlar, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro tuzilmalar

oʻrtasidagi hamkorlik, global xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyot masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik tahdidlarga qarshi kurashish, hamda mintaqaviy va global miqyosda umumiy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan.

Dunyoning turli mintaqasida yuzaga kelgan siyosiy qarama-qarshiliklar, resurslar taqsimotidagi nizolar, millatlar va elatlarning ijtimoiy va madaniy turfaxilligi, uchinchi tomon yoxud tashqi kuchlarning aralashuvi mamlakatlardagi joriy holat, mintaqaviy hamkorlikning murakkablashuviga sabab boʻluvchi bosh omillardir. Mazkur holatlarni oldini olishning eng samarali usuli bu mintaqaviy hamkorlikdir. Mintaqaviy hamkorlik, umumiy xavf-xatarlarni bartaraf etish va samarali qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy hamkorlik barcha yoʻnalishlarda munosabatlarni manfaatli va samarali olib borish imkonini beradi.

Xususan, xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash, iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurash, sogʻliqni saqlash, iqtisodiy integratsiya, taʼlim va ilm-fan kabi sohalaridagi oʻzaro munosabatlarni yanada mustahkamlashda mintaqaviy dialoglar oʻta muhimdir. Misol tariqasida, xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlashda Yevropa Ittifoqi, APT, ASEAN, SHHT kabi mintaqaviy tashkilotlar terrorizmga qarshi kurashish, qurol-yarogʻlarni tarqatmaslik va boshqa xavfsizlik masalalarida oʻzaro yordam koʻrsatadi. Shuningdek, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurashish uchun birlashgan rejalashtirish va resurslarni taqsimlashda hamkorlik qilishadi. Mintaqaviy hamkorlik orqali iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurashishda yagona siyosat mexanizmlarini ishlab chiqishmoqda. Mintaqaviy iqtisodiy integratsion tashabbuslar va loyihalar orqali davlatlar oʻrtasidagi savdo va investitsiyalarni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash maqsadida bugun Yevropa va Osiyo oʻrtasidagi “Bir kamar, bir yoʻl” tashabbusi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Taʼlim va ilm-fan sohalaridagi mintaqaviy hamkorli oʻzaro ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashish va taʼlim tizimlarini yaxshilash orqali mintaqaviy rivojlanishga hissa qoʻshib kelmoqda.

Jahon siyosati bugun har doimgidan ham koʻproq davlatlararo muloqotlar, muzokaralar va kelishuvlarga zarurat sezmoqda. Diplomatik vositalar xalqaro nizolarni oldini olishda, hamkorlikni rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanishi yaqqol namoyon boʻlmoqda. Davlatlar oʻrtasida muntazam aloqalar oʻrnatish va toʻgʻridan-toʻgʻri muloqotlar orqali oʻzaro ishonchni oshirish, ular oʻrtasida ixtiloflar yuzaga kelganda, muzokaralar orqali nizolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Soʻnggi yillarda xalqaro munosabatlar tizimida yangi aktorlarning vujudga kelishi, hududiy nizolarni hal qilish, suverenitetni tan olish, siyosiy kelishuvlarni amalga oshirish kabi masalalarda muzokaralar oʻtkazilishi zarurligini oydinlashtirdi. Turli xarakterdagi nizolarning vujudga kelishi muammoga yechim topishda neytral uchinchi tomonning ishtiroki zaruratini tugʻdirmoqda. Bunda arbitraj va meditatsiya institutlari rolining ahamiyati ortib bormoqda. Shu oʻrinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro tinchlik va barqarorlikni taʼminlashdagi muhim vositachilik roli hech shak-shubhasiz. Bunda tashkilotning eng muhim quroli bu xalqaro huquqiy normativ meʼyorlar, konvensiyalar, aktlar, xalqaro bitimlar va boshqa hujjatlardir. BMT ning roli mazkur jarayonlarda harakatlarning global koʻlamini muvofiqlashtirish hamda ochiq muloqot maydonlarini yaratish, huquqiy meʼzonlarini oʻrnatish, ijro mexanizmlarini yaratish, nazorat qilish va boshqarish, shuningdek isloh qilish funksiyalarini oʻzining global missiyasi sifatida belgilash orqali namoyon boʻlib keladi.

Shunday boʻlsada, zamonaviy jahon siyosati bugun liberalism anʼanalaridan voz kecholmasligini anglab yetgan holda, ralistik qarashlarini ilgari surishda davom etmoqda. Vaholanki, xalqaro huquq, davlatlar oʻrtasidagi nizolarni oldini olish va tartibga solishda, mamlakatlar oʻz majburiyatlarini qonunan bajarishlarini taʼminlashda muhim vosita hisoblanadi. Afsuski, inson huquqlari sohasidagi kamsitilishlar turli koʻrinishda turli mintaqalarda avj olib bormoqda. BMT ning kompleks muammolarga yoʻnaltirilgan global strategiyalar Ming yillik rivojlanish maqsadlari [9] hamda uning mantiqiy davomchisi Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) [10] barcha mamlakatlarni inson qadr-qimmati, adolat va tenglik tamoyillari global darajada qaror topishiga undovchi yaqin kelajakdagi umumjahon siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini oʻzida qamrab olgan [11]. Mazkur strategik maqsadlar va global xavfsizlik oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻta muhimdir. Barqaror rivojlanish faqat xavfsiz va barqaror jamiyatlar sharoitida mumkin boʻladi. Tinchlik, adolat, iqtisodiy oʻsish, ekologik barqarorlik, iqlim xavfsizligi, sogʻliqni saqlash va infratuzilma kabi omillar, nafaqat

barqaror rivojlanishni, balki global xavfsizlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, BRM va global xavfsizlikni amalga oshirishda xalqaro hamkorlik va barcha davlatlar o'rtasidagi integratsion yondoshuvlar zarur.

### XULOSA

Xalqaro xavfsizlik va global o'zgarishlar – bu hozirgi dunyoning eng muhim va kompleks masalalaridan biriga taalluqli bo'lib, u butun dunyo bo'ylab geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bir qator global o'zgarishlarga bog'liq holda amal qila boshladi. Bugungi kunda global tarmoqlar va savdo yo'llarining kengayishi, xalqaro iqtisodiy aloqalar va integratsiya yanada kuchayishi yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda, turli iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy krizislar va tabiiy ofatlar global xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ham yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Energiya xavfsizligi, xususan, neft va gaz kabi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, global siyosatda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu resurslar uchun kurash, davlatlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishi va yangi xavfsizlik tahdidlarini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar, ekologik ofatlar, suv ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalar odamlar va davlatlar o'rtasida ziddiyatlarga sabab bo'layotgan yana bir omillardan biridir. Iqlim migratsiyasi va resurslar uchun kurash — bu ijtimoiy va xavfsizlik muammolarining yangi ko'rinishi sifatida global xavfsizlikka tahdid solmoqda. Yaqin kelajakda dunyo aholisining keskin o'sishi va urbanizatsiya ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Texnologik taraqqiyot, xususan sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik muammolari xalqaro xavfsizlikning yangi jihatlariga aylanib ulgurdi.

Kiberxurujlar, raqamli tahdidlar va onlayn tajovuzlar davlatlar va tashkilotlar o'rtasida yangi xavfsizlik cheklovlarini keltirib chiqarmoqda. Bu kabi jihatlar jahon siyosatida global xavfsizlik tizimining mustahkam tizimi yaratilishi talabini, davlatlarning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarini mazkur jarayonlarda bardosh bera oladigan muhitni shakllantira olishi mumkin. Geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik o'zgarishlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri xalqaro xavfsizlikka ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro hamkorlik, diplomatiya va samarali global tashkilotlarning faoliyati bu tahdidlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Glenn H. Snyder; Mearsheimer's World – Offensive Realism and the Struggle for Security: A Review Essay. *International Security* 2002; 27 (1): 149-173. doi: <https://doi.org/10.1162/016228802320231253>
2. Jozef, Hrabina. “The Year of Crises: How 2020 Will Reshape the Structure of International Relations” *Russia in Global Affairs* 19.1 (73) (2021): 174-199.
3. Kissinger, Henry. Does America need a foreign policy?: Toward a diplomacy for the 21st century. Simon and Schuster, 2002.
4. Keohane, Robert O. After hegemony: Cooperation and discord in the world political economy. Princeton university press, 2005.
5. Morgenthau, Hans J. “A realist theory of international politics” *The realism reader*. Routledge, 2014. – P. 53-59.
6. Mearsheimer, John J. *The tragedy of great power politics* (Updated edition). WW Norton & Company, 2003.
7. Waltz, Kenneth. *Man, the state, and war: A theoretical analysis*. Columbia University Press, 2018.
8. Galtung, Johan. “Violence, peace, and peace research” *Journal of peace research* 6.3 (1969). – P167-191.
9. [https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/millenniumdeclaration/Tashkent\\_UN\\_Millennium\\_Declaration\\_Uzb.pdf](https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/millenniumdeclaration/Tashkent_UN_Millennium_Declaration_Uzb.pdf)

10. SDGs U.N. “United Nations’ Sustainable Development Goals. 17 Goals to Transform our World” (2019).

11. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 17 ta o'zaro bog'liq maqsadlar to'plamidir. BMTning 2030-yilgacha global kun tartibi doirasida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari keng qamrovli barqaror rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000